

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«KELISHILDI»  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi**

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2020-y.



**FASDIOLAYMAN**  
TDPU rektori  
A.Yu.Umarov

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2020-y.

**5111900 - Defektologiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi  
negizidagi:**

5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (oligofrenopedagogika)  
5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (logopediya)  
5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (surdopedagogika)

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan**

**DASTUR**

Toshkent – 2020-y.

## **Annotatsiya**

Dastur Maxsus pedagogika, defektologiya (oligofrenopedagogika), 5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (logopediya), 5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (surdopedagogika) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun Defektologiya ta'lim yo'naliishing 2016-2017 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

### **Tuzuvchilar:**

M.P Xamidova–TDPU “Oligofrenopedagogika” kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent.

M.Yu. Ayupova– TDPU «Logopediya» kafedrasi, p.f.n., professor.

N.Z. Abidova– TDPU «Logopediya» kafedrasi mudiri, PhD, dotsent.

Z.N.Urunova – TDPU “Surdopedagogika” kafedrasi mudiri

Dastur Maxsus pedagogika fakulitetining 2020 yil \_\_\_\_\_ iyundagi № \_\_\_\_\_ - sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## **КИРИШ**

**5111900 - Defektologiya** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi –maxsus va umumta’lim maktabgacha ta’lim tashkilotlari; maxsus mакtablar; umumta’lim mакtablari; bolalar “Muruvvat” uylari; “Mexribonlik” uylari; Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi muassasalar, nodavlat tashkilotlar; o‘rta maxsus kasb-xunar ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘rnatilgan tartibda o‘qitish hamda ommaviy axborot vositalari, davlat bosharuvi organlari, boshka davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Ta’lim yo‘nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va fanning zamonaviy yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatları asosida tashkil etish, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish, ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazishi, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish, har bir darsning ta’limiy vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish va o‘zlashtirishning eng yangi texnologiyalarini qo‘llash, turli xildagi shakl, metod va vositalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko‘nikma hosil qilishdan iboratdir.

**Defektologiya (faoliyat turlari bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi negizidagi 5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (oligofrenopedagogika), 5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (logopediya), 5A111901-Maxsus pedagogika, defektologiya (surdopedagogika) magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga asosan 3 ta umumkasbiy fanlari bo‘yicha: “Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika)”, “Ona tili o‘qitish maxsus metodikasi”, “Matematika o‘qitish maxsus metodikasi”, Logopediya, Maktabgacha logopediya, Surdopedagogika, Maktabgacha surdopedagogikadan test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan ma’lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

### **MAXSUS PEDAGOGIKA (OLIGOFRENOPEDAGOGIKA) fani bo‘yicha:**

Oligofrenopedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Oligofrenopedagogika fanining asosiy kategoriyalari: tarbiyalash, o‘qitish, korreksiya, adaptatsiya. Aqli zaif bolalar - o‘rganish, o‘qitish va tarbiyalash ob’ekti sifatida. Aqli zaif bolalar tasnifi hamda uning aqli zaif bolalar uchun maxsus muassasalarni differensatsiyalashdagi ahamiyati. Yordamchi mакtab o‘quvchilarining pedagogik tasnifi. Yordamchi mакtabda ta’lim jarayonining mazmun-mohiyati. O‘qitish jarayonining ta’limiy, korreksion-rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalari. Yordamchi mакtabda o‘qitish metodlari. Ta’limning korreksion-rivojlantiruvchi va amaliy yo‘nalganligi. Yordamchi mакtabda o‘quv bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish xususiyatlari. Yordamchi

maktabda ta’lim tamoyillari. O‘quvchilarga individual va differentials yondashish. O‘qitishning tashkiliy shakllari. Dars o‘qitish va tarbiyalashning asosiy shakli. Darsning turlari va tuzilishi. Darsga qo‘yiladigan talablar. Yordamchi maktabda tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifasi va tamoyillari. Yordamchi maktabda tarbiya jarayoning asosiy xususiyatlari. Milliy an'analar, xalq pedagogikasi asosida tarbiyalash. Yordamchi maktabda tarbiya mazmuni va metodlari. Aqli zaif bolalarning klinik, psixologik xususiyatlari va tarbiyalashning ijtimoiy sharoitidan kelib chiqqan holda yordamchi maktabda korreksion-tarbiyaviy ish vositalari, va pedagogik vazifalarni differensatsiyalash. Maktabshunoslik. O‘zbekistonda ta’lim tizimi. Ta’lim muassasalari va ularning xususiyatlari. Sinfdan tashqari ishlar va ularni tashkil etish yo‘llari.

### **ONA TILI O‘QITISH MAXSUS METODIKASI fani bo‘yicha:**

Ona tili o‘qitish maxsus metodikasi fan sifatida. Ona tili yordamchi maktabda o‘quv predmeti sifatida. Yordamchi maktabda ona tili o‘qitish tamoyillari. Aqli zaif bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari. Savodga o‘rgatishning alifbegacha (tayyorlov) davri. Savodga o‘rgatishning alifbe davri. Yordamchi maktabda savodga o‘rgatishning usul va yo‘llari. Alifbegacha va alifbe davrida yozuv darslarini tashkil etish metodikasi. Gap ustida ishslash. Yordamchi maktabda o‘qish darslarning vazifalari va mazmuni. O‘qish malakasining asosiy jihatlarini shakllantirish. O‘qish darslarida nutq o‘stirish. Ertak va hikoya ustida ishslash metodikasi. She’r, masal, ilmiy-ommabop matnlar ustida ishslash metodikasi. Yordamchi maktabda sinfdan tashqari o‘qish. Maxsus maktabda grammatika va to‘g‘ri yozuvga o‘rgatish tizimining vazifalari va mazmuni. Grammatik tushunchalarni shakllantirish metodikasi. Grammatik va orfografik mashq turlari. Maxsus maktabda grammatika va to‘g‘ri yozuv darslari. Maxsus maktabda yozma ishlar va ularni o‘tkazish metodikasi. Ona tili darslarida xatolar ustida ishslash. Ona tili darslarida mustaqil ishlar. Og‘zaki dialogik va monologik nutq o‘stirish. Bayon va insho ustida ishslash metodikasi. Ish qog‘ozlari ustida ishslash metodikasi.

### **MATEMATIKA O‘QITISH MAXSUS METODIKASI fani bo‘yicha:**

Yordamchi maktabda matematika o‘itish vazifalari va mazmuni. Matematika o‘itish uslubiyatining bosha fanlar va ta’limning boshqa uslubiyatlari bilan bog‘liqligi. Matematika o‘qitish usullari. Yordamchi maktab o‘quvchilarining matematik bilimlarni egallash xususiyatlari. Yordamchi maktabda matematika darsi. Yordamchi maktabda matematika o‘qitishga tayyorgarlik davri. Birinchi o‘nlikni o‘rganish metodikasi. Yordamchi maktabda 20 ichida nomerlashni o‘rganish metodikasi. 100 ichida nomerlash va arifmetik amallarni o‘rganish metodikasi. Jadvalda ko‘paytirish va bo‘lishni o‘rganish metodikasi. Yordamchi maktabda asosiy miqdorlar va ular o‘lchovlarini o‘rganish metodikasi. Vaqt o‘lchovlarini o‘rganish metodikasi. Midorlarni o‘lchashda hosil bo‘lgan sonlar va ular ustida amallar bajarishni o‘rganish metodikasi. Oddiy kasrlarni o‘rganish metodikasi. O‘nli kasrlarni o‘rganish metodikasi. Yordamchi maktabda arifmetik masalalar echish metodikasi. Yordamchi maktabda geometrik materialni o‘rganish metodikasi.

## **LOGOPEDIYA fani bo'yicha:**

Logopediya fanining umumiy masalalari. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari. Logopediya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Logopediyaning metodologik asoslari. Nutq buzilishlari etiologiyasi. Nutqning anatomic-fiziologik mexanizmlari. Nutq buzilishlarini tahlil qilish tamoillari. Nutq buzilishlarini tasniflash. Logopedik ta'sir tamoillari va metodlari. Bolalar nutqining rivojlanish hususiyatlari. Nutq faoliyatining xususiy patologiyasi. Ovoz apparati va hiqildoqning ovoz hosil qilishi funksiyasi. Ovoz apparatining akustikasi va ovozning akustik tuzilishi. Ovoz huruji. Rегистратор. Ovoz paydo bo'lishi nazariyalari. Bolalar ovozining rivojlanishi. Ovoz buzilishlarining etiologiyasi. Ovoz buzilishlarini kelib chiqish sabablari va mexanizmi. Ovozdagi o'zgarishlar (buzilishlar) ning sabablari va turlari. Ovoz buzilishining tasnifi. Organik ovoz buzilishlari, (xiqildaq harakatining buzilishi, surunkali laringit, kichik xirurgik operatsiyadan keyingi ahvol). Funksional ovoz buzilishlari (parezlar, fonosteniya, funksional afoniya, patologik mutatsiya).

Ovoz buzilishlarini bartaraf etish. Ovoz buzilishlari profilaktikasi va ovoz gigienasi. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. O'zbek tili tovushlari tasnifi. Bolalarda nutq tovushlarini ontogenetika shakllanishi va rivojlanishi. Dislaliya haqida tushuncha. Dislaliyani o'rganish tarigi. Dislaliya sababalari . Funksional va mexanik, monomorf va polimorf, oddiy va murakkab dislaliya. Dislaliya turlari (sigmatizm, rotatsizm, lambdatsizm, kappatsizm, yumshatish nuqsonlari). Tovush talaffuzi va nutq eshituv idrokinining buzilishi (fonetik, fonematik va fonetik-fonematik). Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi. Tovush talaffuzi buzilishlarini bartaraf etish usullari. Logopedik ish davrlari: tayyorlov, tovushni nutqga qoyish, tovushni nutqda mustahkamlash, tovushlarni ajratish (differensiatsiyalash), tovushni nutq faoliyatiga kiritish. Har bir davrning vazifasi va ish usullari. Turli xil sigmatizmni bartaraf etish. Rotatsizm va lambdatsizmni bartaraf etish. Til orqa (k, g, x) va chuqur til orqa (q, g') tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish. Rinolaliyani o'rganishning tarixi. Buzilish mexanizmi, sabablari va uni aniqlash. Logopedik yordam ko'rsatishni rivojlantirish. Rinolaliya shakllari. Ochiq rinolaliY. Yopiq rinolaliy. Aralash rinolaliY. Tanglaydagi tug'ma yoriqlarning bolaning jismoniy, ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ta'siri. Rinolaliyada nutqning o'ziga hos xususiyatlari. Rinolalik bolalarga kompleks, ya'ni tibbiy-pedagogik ta'sir logopedik ishning bir qismi sifatida. Ochiq rinolaliyada logopedik ishning asosiy tamoyillari. Operatsiyagacha va operatsiyadan keyin olib boriladigan logopedik ish metodikasi. Rinolaliyada tovushlarni nutqqa qoyishning o'ziga xos hususiyatlari. Rinolaliyada ovoz buzilishi va uni korreksiyalash. Dizartriya haqida tushuncha. Dizartriya nutq buzilishini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Dizartriyaning sabablari. Dizartriya – bolalar cerebral falaji kasalligining belgisi sifatida. Dizartriya tasnifi. Asosiy shakllari va ularning belgilari. Dizartrik bolalarning salomatligi, psixik va nutq taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Artikulyatsiya (talaffuzining aniqligi), umumiy va mayda motorikaning (nutqga dahldor va dahldor bo'limgan) buzilishi. Dizartriyani bartaraf etishda korreksion-pedagogik ishlarni tizimi. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarning vazifalari, korreksion ish metodlari va usullari. Dizartriya nutqiy nafas va ovozni

rivojlantirish. Tovushlar talaffuzini korreksiyalash. Sistemali nutq buzilishi. Alaliya – nutqning sistemali (surunkali) rivojlanmaganligi. Alaliyani o‘rganish tarixi. Alaliya sabablari va mexanizmi. Alaliya shakllari. Alaliyani tasniflash. Motor alaliya. Alaliyada nutqning leksik-grammatik va fonetik tomondan buzilishi. Alalik bolalarining nutqni o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklari. Motor alalik bolalar nutqning leksik-grammatik va fonetik-fonematisk tavsifi. Motor alaliyaning nutqiy bo‘lmagan belgilari. Motor alaliyada korreksion ta’sir tizimi. Sensor alaliya. Sensor alaliyaning asosiy belgilari. Sensor alaliyalı psixologik-pedagogik va nutqiy hususiyatlari. Sensor alaliyaning zaif eshitish va aqli zaiflik bilan qiyosiy tavsifi. Sensor alaliyada korreksion ta’sir tizimi. Afaziya - uning sabablari va mexanizmi. Afaziyanı o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Afaziya shakllari va ularning nomoyon bo‘lish sabablari. Akustik-gnostik sensor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagı buzilishlar. Akustik-mnestik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagı buzilishlar. Semantik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, og‘zaki va yozma nutq buzilishi. Afferent-motor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagı buzilishlar. Efferent-motor afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagı buzilishlar. Dinamik afaziya: nutq tushunishdagi kamchiliklar, ekspressiv nutq buzilishi, o‘qish va yozuvdagı buzilishlar. Bolalarda afaziyaning kechishi xususiyatlari. Afaziyada korreksion-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo‘nalishlari. Reabilitatsion ta’limning tamoyil va metodlari. Afaziyaning barcha shakllarini bartaraf etishda korreksion-logopedik ish tizimi va uning o‘ziga xos hususiyatlari. Yozma nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish. Yozma nutqdagi kamchiliklarini o‘rganish tarixi. O‘qishning psixologik akti. Meyorda o‘qishni o‘zlashtirish jarayoni. Tovush-harf jarayonini o‘zlashtirish jarayoni. Bo‘g‘inlab o‘qish bosqichi. So‘zlarni butun o‘qish. Sintetik o‘qish bosqichi. Disleksiya. Disleksiya tasnifi. Disgrafiya. Yozuv jarayonining psixik-fiziologik qurilishi. Yozuv jarayonini operatsiyalari. Disgrafiya tasniflari. O‘qish va yozishdagi kamchiliklari bo‘lgan bolalarni tekshirish. Yozma nutqdagi kamchiliklarning oldini olish. Yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etishda olib boriladigan logopedik ishlar metodikasi.

### **MAKTABGACHA LOGOPEDIYA fani bo‘yicha:**

Fonetik-fonematisk nutq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash. Fonetik-fonematisk nutq kamchiligi haqida tushuncha. Fonetik-fonematisk nutq buzilishini (FFN) turli darajadagi ko‘rinishlari, tavsifi. Fonetik-fonematisk nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan bolalar nutqini tekshirish. Fonetik-fonematisk nutq kamchiligini bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan ish mazmuni, korreksion ishni tashkil etish va rejalahtirish. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi haqida tushuncha. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar tasnifi. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligining darajalari va ularning namoyon bo‘lishi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqini tekshirish. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligining har bir darajasini bartaraf etish bo‘yicha olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishni tashkil etish va rejalahtirish.

Duduqlanish. Duduqlanishni o‘rganish va uni bartaraf etishning qisqacha tarixi. Duduqlanishning psixofiziologik mexanizmlari. Duduqlanishning tipologiyasi. Duduqlanish tabiatи va xarakteri xususida zamonaviy nuqtai nazarlar. Pay tortishishi lokalizatsiyasi va turlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanish kechishining xususiyatlari. Duduqlanish – muomala (kommunikatsiya) vositasining buzilishi sifatida. Duduqlanish nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalar nutqini tekshirish. Duduqlanuvchi bola nutqini to‘g‘irlash va shaxsini tarbiyalashga oid logopedik ishning asosiy yo‘nalishlari. Duduqlanuvchi bolaning nutqi va shaxsiga bevosita va bilvosita logopedik ta’sir. Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyalari. Maktab yoshdagi, o‘smyrlar va katta yoshdagi duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik korreksion logopedik ishlar. Nutq tempining buzilishi. Nutq tempining buzilishi bradilaliya, taxilaliya tushunchalari. Bu nutq buzilishining patogenzi, klinikasi. Nutq ritmi va tempi buzilishlarini o‘rganish tarixi. Taxilaliya ko‘rinishlarini tasniflash. Battarizm nutqiy va nonutqiy buzilishlar. Nutq tempi buzilgan bolalarni tekshirish. Nutq tempi buzilishlarini bartaraf etishda logopedik ishlar. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarga psixologik-pedagogik tavsif. MMTT logopedlarining yuritadigan ish xujjatlari. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota – onalari bilan ishslash.

### **SURDOPEDAGOGIKA fani bo‘yicha:**

Surdopedagogikaning predmeti va metodlari. Surdopedagogikaning rivojlanish tarixi. Chet el surdopedagogikasining rivojlanishining bosqichlari. Rossiya surdopedagogikasining rivojlanishining bosqichlari. Milliy surdopedagogikaning rivojlanishining bosqichlari. Kar bolalar maktabi didaktikasi. Kar bolalarni o‘qitish jarayoni. Kar bolalar mакtabida ta’lim tamoyillarini amalga oshirilishi. Kar bolalar mакtabida o‘qitish metodlari. O‘qitishning tashkiliy shakllari. Zaif eshituvchi bolalar maktabi didaktikasi. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar psixologik-pedagogik tasnifi. Zaif eshituvchi bolalar mакtabida ta’lim tamoyillarini amalga oshirilishi. Zaif eshituvchi bolalar mакtabida o‘qitish metodlari. O‘qitishning tashkiliy shakllari. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘qitish usullari va aqliy rivojlantirish. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasining nazariy va amaliy asoslari. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiyasining nazariy va amaliy asoslari. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni mehnat tarbiyasi. Tarbiya metodlarining mazmuni. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni oilada tarbiyalash. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash jarayonida oila va bilan maktab xamkorligi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni kasbga yo‘naltirish. Koxlear implantantli eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar reabilitatsiyasi. Koxlear implantantli eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar reabilitatsiyasi. Koxlear implantantli eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar reabilitatsiyasi jarayonida kompensator-korreksion va rivojlantiruvchi yo‘nalishlar. Koxlear implantli eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni eshitish idrokini rivojlantirish. Koxlear implantli bolalar bilan reabilitatsiya ishlarida rivojlantirish. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtabida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtabida pedagogik texnologiyalarini qo‘llash. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar

maktabida axborot texnologiyalarini qo'llash. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim jarayonida asisstiv texnologiyalarni qo'llash.

### **МАКТАБГАЧА SURDOPEDAGOGIKA fani bo'yicha:**

Maktabgacha surdopedagogikaning nazariy asoslari. Maktabgacha surdopedagogikasi fanining predmeti, maqsadi va metodlari. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning maktabgacha tarbiyasi tarixi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik tekshiruv. Kar va zaif eshituvchi bolalarga maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ta`lim berish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy tarbiyasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning mehnat tarbiyasi. Maktabgacha yoshdagisi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalash. Kar va zaif eshituvchi bolalarga maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ta`lim berish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning tarbiya usullari. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy tarbiyasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning axloqiy tarbiyasi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning mehnat tarbiyasi. Maktabgacha yoshdagisi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni oilada tarbiyalash.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президентининг лавозимида киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруза 2016 йил 7 декабрь. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 48 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.
4. Пўлатова П.М. Maxsus педагогика (Олигофренопедагогика). Дарслик. Т.: F.Fулом нашриёти, 2005.
5. Р.Po'latova, Z.Mamarajabova, SH.Amirsaidova, L.Nurmuxamedova va boshqalar. Maxsus pedagogika. Darslik. T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2014.
6. Raxmanova V.S Maxsus pedagogika - Т.: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 2004
7. Raxmanova V.S. Ona tili o‘qitish maxsus metodikasi. - Т.: “Iqtisod-moliya”, 2007.
8. Пузанов, Б.П. Обучение и воспитание детей с интеллектуальными нарушениями. – М.: Гумнит. изд. центр ВЛАДОС, 2013. – 439 с.]
9. Петрова В.Г., Белякова И.Ю. Психология умственно отсталых детей. М.: 2004

10. Qosimova K., Machonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariyev SH. Ona tili o‘qitish metodikasi. - T.: “NOSHIR”, 2009 .
11. Аксенова А.К. Методика обучения русскому языку в коррекционной школе. М.: “Владос”, 2004 г.
12. Ayupova M.Y. Logopediya. - Т.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2007.
13. Воронкова В. В. Обучение грамоте и правописанию в 1—4 классах вспомогательной школы: Пособие для учителя. — М.: Просвещение 1988.— 102 с.
14. Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtab, mакtab-internatлari uchun o‘quv dasturi. O‘qish . I-X sinflar. T.: PTM.
15. Sagatov A.M Yordamchi maktabda matematika o‘qitish uslubiyati.- Т.: «O‘qituvchi»1993.
16. Sagatov A.M Matematika o‘qitish maxsus metodikasi. – Т.: Fan va texnologiya, 2008.
17. Перова М. И. Методика преподавания математики в специальной (коррекционной) школе VIII вида: Учеб. Для студ. дефект, фак. пед. вузов. — М.: Гуманит. изд. Центр ВЛАДОС, 2001
18. Обучение математике детей с нарушениями интеллектуального развития (олигофренопедагогика). Под ред. Пузанова Б.П. – М., 2013.
19. Волково Л.С. Логопедия учебник. М.: Владос. 2003 г.
20. Ayupova M.Y. Logopediya. O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. Т.: 2007, 2011й.
21. Myminova L., Ayupova M. Logopediya. O‘quv qo‘llanma. Т.: O‘qituvchi. 1993 у.
22. Волкова Л.С, Селиверстов В.И. Хрестоматия по логопедии учеб. Пос. Владос.: М.: . 1/2 том.
23. E.G Rechitskaya, E.V.Parxalina Gotovnost slaboslyshashchix detey doshkolnogo vozrasta k obucheniyu v shkole. M., Vlados. 2003.
24. P.Po‘latova, Z.Mamarajabova L.Nurmuxamedova va b. Maxsus pedagogika. Darslik “Fan va texnologiyalar” nashriyoti. Т.: 2014
25. D.F. Nazarova, Z.N.Mamarajabova Surdopedagogika “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti